“O‘zkimyosanoat” AJ “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” mavjudligini tasdiqlovchi xalqaro ISO 37001:2016 sertifikatini yana 1 yil muddatga uzaytirdi

// 04.12.2023
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-menejment-ti

Joriy yilning 27-28-noyabr kunlari ISO 37001:2016 halqaro standart talablariga muvofiq “CERT International” xalqaro trening kompaniyasi “O‘zkimyosanoat” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ikkinchi kuzatuv auditidan muvaffaqiyatli o‘tdi va xalqaro auditorlik va sertifikatlash tashkiloti tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi amalda samara berayotganining asosiy ko‘rsatkichi bo'lgan ISO 37001:2016 xalqaro muvofiqlik sertifikati muddatini 1 yilga uzaytirildi.

O‘z navbatida ushbu ISO 37001:2016 xalqaro muvofiqlik sertifikati “O‘zkimyosanoat” AJ va uning xodimlarini korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me’yorlarni hisobga olgan holda o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini vijdonan bajarishi, qonun hujjatlariga qat’iy rioya qilishi, teng raqobat tamoyillariga amal qilishi va halollik, ochiqlik va vijdonlilikning korporativ madaniyatini shakllantirish bo‘yicha mas’uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.